



O‘ZBEKISTON REPUBLIKASIDA QIZLAR UCHUN HARBIY XIZMATNING HORIIY TAJRIBASI

Qurambayeva Rayhona Kamoladdin qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

“Yurisprudensiya” yo‘nalishi I-kurs talabasi

Annotatsiya: Vatanni himoya qilishda erkak yo ayol tushunchasining o‘zi bo‘lmaydi. Ayniqsa, ayollarning sadoqati va ju‘rati ko‘p joylarda namuna bo‘lishi kerak. Ushbu maqolamda shu sadoqatli ayollarimiz harbiy xizmatga borishi kerakmi yoki yo‘qmi, qizlar uchun harbiy xizmat mavjud yoki mavjud emasligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, parlament, hukumat, gender tengligi, mudofaa vazirligi, bojxona qo‘mitasi, ichki ishlar, ayollar, harbiy xizmat.

“Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir. Ularning jangovar qudrati hamda bosqinchilarni qurolli mojarolar va urush boshlab yuborishdan tiyib turish vazifalarini bajarishga tayyor darajasida hamda mamlakat hududiga bosqinchilik qilingan taqdirda qurol-yaroqlarning barcha turlaridan unumli foydalangan holda bosqinchilarni tor-mor qilishdan iboratdir”

Shavkat Mirziyoev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni.

Respublikamizda harbiy xizmatni o‘tash yurtimizning mard va jasur o‘g‘lonlari tomonidan amalga oshiriladi. Harbiy hizmat har bir mamlakatda asosan erkaklar tomonidan amalga oshiriladi. Lekin o‘nga yaqin davlatda ayollarni ham harbiy xizmatlari joriy qilingan. Bunga misol qilib Niderlandiya hukumati 17



yoshga to'lgan xotin-qizlarni harbiy xizmatga chaqiruvini boshlanishini ma'lum qilgan. Mazkur qaror gender tenglik doirasida qabul qilingan bo'lib, jamiyatda ayollar va erkaklar teng huquqlarga egaligi ayollarning majburiyatlari sifatida qaralgan.

Jumladan, Isroilda ayollarning harbiy xizmatga qat'iy jalb qilinishi 1948-yilda tashkil etilgan. Isroilning harbiy xizmat tizimi o'ta murakkab bo'lib, unda ayollar erkaklar bilan bir qatorda xizmat qiladi. Ayollarni harbiy xizmatga jalb qilish mamlakatning foydasiga yordam beradi va tengligini ta'minlashda o'zining muhim rolini o'ynaydi. AQShda ayollar harbiy xizmatga 1948-yilda jalb qilingan, ammo faqat 2013-yilda ular jangovar ishtirok etish huquqiga ega bo'ldilar. AQSh harbiy tizimida ayollarga keng qo'llab-quvvatlanadi, ularga yordam beradi, balki jangovar yordamda ham faol ishtirok etadi. AQShdagi ayollar uchun harbiy xizmatdagi tajriba, yuridik xavfsizlik choralari va harbiy tizimda faol rol o'ynashini ta'minlashga erishilgan. Niderlandiya ommaviy axborot vositalari xabarlariga ko'ra, harbiy xizmatga chaqirilishi kutilayotgan 100 ming bo'lajak xizmatchilar orasida mamlakat qirolining qizi, malika va taxt vorisi Ameliya ham bo'lishini ta'kidlab o'tilgan.

Daniya hukumati ham ayollarimizni harbiy xizmatga chaqirishga qaror qilgan ilk davlatlardan biri hisoblanadi. Daniya hukumati ayollar uchun ham harbiy xizmatni joriy qilish orqali "jinslar o'rtasidagi to'liq tenglikka" erishmoqchi. Daniya hukumati har ikkala jins vakillari uchun ham majburiy xizmat muddatini to'rt oydan o'n bir oyga uzaytirmoqchi. Hozirgi vaqtda Daniyada ayollar uchun xizmat ixtiyoriy hisoblanadi.

Shuningdek, Norvegiya parlamenti ham 2014 yil 14-iyun kuni qurolli xizmatlarda gender tengligi tarafdori bo'lgan navbatdagi qadamda, 2016 yil o'rtalaridan boshlab ayollarga majburiy harbiy xizmatning vaqtini uzaytirish to'g'risidagi qonun loyihasiga ko'pchilik ijobiy ovoz bergan. Norvegiya har ikki jins vakillari uchun harbiy xizmatni majburiy qilib qo'ygan birinchi davlatlardan



biri hisoblanadi. Bu qonun 1997 yildan boshlab tug‘ilgan 19 yoshdan 44 yoshgacha bo‘lgan sog‘lom Norvegiya fuqarolariga ta‘aluqlidir. 2017-yil holatiga ko‘ra, Norvegiya harbiy kuchlaridagi 11596 nafar harbiy xizmatchidan 1341 nafari ayollar (12 %) edi. O‘sha yili chaqirilgan barcha askarlar orasida ayollar ulushi 23 % ni tashkil etdi. 2017-yil 26-yanvarda general-mayor Tonje Skinnarland Norvegiya Qirollik havo kuchlari boshlig‘i etib tayinlangan birinchi ayol bo‘ldi.

Italiyada ham ayollar armiyasi mavjud bo‘lib Italiya armiyasida ayollar o‘quv markazi “Piceno” deb nomlanadi. Hozirgi vaqtda ayollar Italiya qurolli kuchlarining barcha bo‘linmalarida, jumladan, politsiyada, va boshqa harbiy qatlamlarda hizmat qilishadi.

Shvetsiyada 2018-yildan boshlab umumiy harbiy majburiyat, xususan, qizlar uchun ham qayta joriy etildi. Bu haqda mamlakat mudofaa vaziri Peter Xultkvist ma‘lum qildi va u buni shunday izohlaydi “ Biz shaxsiy tarkibni to‘ldirishning yanada barqaror, ishonchli va funksional usuliga yo‘l topa olishimizga umid qilamiz”. Har yili 4 mingga yaqin o‘g‘il va qiz Shvetsiya armiyasiga chaqirilishi kutilmoqda.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar deb aytilgan. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston respublikasining qonunida “Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog‘ida teng huquqlilikni kafolatlaydi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta‘minlanishini kafolatlaydi”- deb ta‘kidlangan. O‘zbekistonda qizlarning harbiy xizmatga ishtiroki so‘nggi yillarda ko‘p e‘tibor qaratilgan mavzulardan biri bo‘lib, u jamiyatda yangi ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni aks ettiradi. Harbiy xizmatga



qizlarning ishtiroki masalasi, odatda, erkaklar bilan bog‘liq deb hisoblanadi, ammo bugungi kunda ko‘plab davlatlar, jumladan O‘zbekiston, gender tengligini ta‘minlash yo‘lida bir qator yirik qadamlar tashlamoqda. Respublikamizda 2021-yildan boshlab, qizlarning harbiy xizmatga jalb qilinishi haqida yangiliklar paydo bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilgi nutqlaridan birida harbiy xizmatni yangilash va modernizatsiya qilish, shuningdek, harbiy xizmatga ayollarning ham jalb etilishini ko‘zda tutgan dasturlar ishlab chiqish haqida gapirilgan edi. Bundan oldin, faqat erkaklar harbiy xizmatni bajarishga majbur bo‘lib kelgan, lekin so‘nggi yillarda qizlarning harbiy xizmatga jalb qilinishi masalasi ijtimoiy hayotda ko‘proq muhokama qilinmoqda. 2022-yilda O‘zbekistonda ayollarni harbiy xizmatga jalb qilish haqidagi qonunlar o‘zgartirildi. Bu o‘zgarishlar gender tengligi va ayollarni ijtimoiy faoliyatga kengroq jalb qilish bo‘yicha kengroq siyosatning bir qismi sifatida qaraladi. Ayollarning harbiy xizmatga kirishishi, bir tomondan, jamiyatdagi o‘zgarishlarga va gender tengligiga bo‘lgan ehtiyojni ko‘rsatadi, boshqa tomondan, ayollarga yangi ijtimoiy imkoniyatlar va kasbiy rivojlanish yo‘llarini ochib beradi. Harbiy xizmatda ayollar, erkaklar bilan teng ravishda, turli lavozimlarda ishlashlari mumkin, jumladan, tibbiyot, aloqalar, logistika, harbiy tayyorgarlik kabi sohalarda. Ayollarni harbiy xizmatga jalb qilishda, ular uchun maxsus tayyorgarlik dasturlari va o‘qitish tizimlari ishlab chiqilishi zarur. O‘zbekistonda o‘qitish va tayyorgarlikning sifatini yaxshilashga qaratilgan tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bu ayollarning harbiy xizmatdagi samaradorligini oshirishga yordam beradi. O‘zbekistonda ayollarni harbiy xizmatga jalb qilish masalasi, ba’zi qismlar tomonidan ijtimoiy qarshiliklarga duch kelmoqda. Traditsion qarashlar va gender rollariga asoslangan stereotiplar ko‘pchilikning ayollarni harbiy xizmatda ko‘rishga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lishiga olib keladi. Biroq, jamiyatda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikni ta‘minlashga bo‘lgan talablar kuchaymoqda, bu esa bunday stereotiplarni kamaytirishga yordam beradi.



Bundan tashqari, ayollarning harbiy xizmatga jalb qilinishi O‘zbekistonning xalqaro maydonda imidjini mustahkamlashga yordam beradi. O‘zbekiston xalqaro xavfsizlik va tinchlikni ta’minlashda faol ishtirok etayotgani bilan tanilgan, va ayollarning harbiy xizmatga jalb qilinishi bu jarayonda ijobiy rol o‘ynaydi. Konstitutsiyamizda O‘zbekiston Respublikasini himoya qilish har bir fuqaroning burchidir deb aytiladi. 2024 yil parlament saylovlarida “Milliy tiklanish” partiyasi rasi Alisher Qodirov qizlarni o‘z hohishiga ko‘ra harbiy xizmatga jo‘natish taklifini ilgari suradi. Bu taklif juda ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘ladi. U bu taklifini shunday izohlaydi: “Vatanni himoya qilishda erkak yo ayol degan tushunchaning o‘zi bo‘lmaydi. Ayniqsa ayollarimizning sadoqati va ju‘rati ko‘p joylarda namuna bo‘lishi kerak. Armiyaga borish bu vatanda tug‘ilib-o‘sgan har bir insonning burchi. O‘g‘ilmi yoki qiz vatanga foydasi tegadigan bo‘lishi kerak. Chunki tinchlik hammamiz uchun qadrli. Ayol jazm etsa, har ishga qodir, deganlaridek har qanday insonning o‘zida vatanga kuchli mehr-muhabbat bo‘lsa va eng avvalo kasbini sevsa, albatta o‘z o‘rnini topadi. Bu bizning qadriyatlarimizga juda ham uyg‘un” deydi. Uning bu taklifiga Mudofa vazirligi shunday javob bergan: “Qizlarimiz muddatli harbiy xizmatga qabul qilinmaydi. Bu qonunchilikda belgilangan. Ammo shartnoma asosida ma’lumotiga qarab ishga olinishi mumkin. Mening shaxsiy fikrim ham mana shu qonunchilik bilan bog‘liq”. Shuningdek hozirgi paytda mudofa vazirligi qo‘shinlarida, bojxona qo‘mitasida, ichki ishlar va shu kabi boshqa harbiy sohalarda ayollar xizmat ko‘rsatib kelishmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak har bir fuqaro hoh ayol bo‘lsin, hoh erkak har doim vatanini himoya qilishga vatanni har bir tuprog‘ini asrab avaylashga doimo tayyor turishi lozim. O‘zbekistonda qizlarning harbiy xizmatga ishtiroki — bu nafaqat gender tengligini ta’minlash, balki jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettiruvchi ijtimoiy jarayon bo‘lib ayollarni harbiy xizmatga jalb qilish, ularning kasbiy rivojlanishiga hissa qo‘shadi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Biroq, bu yo‘lda qarshiliklar va stereotiplar mavjud bo‘lib, ular jamiyatda yanada kengroq tushunish



va madaniy o'zgarishlarni talab etadi. O'zbekistonda ayollarni harbiy xizmatga jalb qilishda horijiy tajriba muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda ayollarning harbiy xizmatga ishtiroki kelajakda yanada kengayishi mumkin, bu esa nafaqat ayollar uchun, balki jamiyatning umumiy rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. O'zbekistonning ayollarni harbiy xizmatga jalb qilish masalalari ijtimoiy, madaniy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lib, u jamiyatdagi gender tengligini ta'minlashga xizmat qiladi. Kelajakda ayollarning harbiy xizmatdagi ishtiroki kengayib, bu jarayon davlatning harbiy xizmatni ta'minlashga yordam berishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi". Toshkent "Yuridik adabiyotlar publish" 2023.

2. "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent. 2002. <https://lex.uz/>

3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida xotin-qizlar va harbiy xizmatchilarning oila a'zolari bilan ishlash tizimining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2023-yil 3-oktabr.

<https://lex.uz/acts/-78717>

https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Umumiy_harbiy_majburiyat_va_harbiy_xizmat

<https://kun.uz/uz/news/2023/11/02/harbiy-xizmatchilar-maqomi-tog'risidagi-qonun-loyihasi>